


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ALISHER NAVOI'S WORK AND OUR TIME**

Abdurasul Eshonboboyev,
State Museum of Literature Named after Alisher Navoi
abdurasul.eshonboboyev@mail.ru

Abstract: The article analyzes the theoretical problems related to modern editions of Alisher Navoi's "Khamsa". Aspects related to presentation to today's readers are discussed.

Keywords: "Khamsa", manuscript, critical text, prose commentary, dictionary.

ALISHER NAVOIY IJODI VA ZAMONAMIZ

Abdurasul Eshonboboyev,
Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi
abdurasul.eshonboboyev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy "Xamsa"ning zamonaviy nashrlari bilan bog'liq nazariy muammolar tahlil qilingan. Bugungi kun kitobxoniga taqdim qilish bilan aloqador jihatlar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. "Xamsa", qo'lyozma, tanqidiy matn, nasriy izoh, lug'at.

Аннотация: В статье анализируются теоретические проблемы, связанные с современными редакциями «Хамсы» Алишера Навои. Обсуждаются аспекты, связанные с представлением сегодняшнего читателя.

Ключевые слова: «Хамса», рукопись, критический текст, прозаический комментарий, словарь.

Kirish. Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodiy merosi uzoq davrdan buyon doimiy ravishda adabiy jarayondan mustahkam joy olib, ko‘plab avlodlarga bitmas-tuganmas estetik zavq ulashib kelmoqda. Umumturkiy adabiyotning uzoq asrlik tarixi davomida hech bir ijodkor bu borada Navoiy singari shuhrat tutmagan, e‘tirof etilmagan, asarlari yuzlab nusxalarda ko‘chirilib keng hudud bo‘ylab tarqalmagan. O‘tgan yigirmanchi yuz yillikning suronli kechgan jarayonlariga qaramay navoiyshunoslik salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Shoir asarlarining dastlab uch, keyin o‘n besh va nihoyat 20 jildlik **“Mukammal asarlar to‘plami”** nashr yuzini ko‘rdi qator xorijiy tillarga tarjima ham qilindi. Ijodiy merosi esa maktab va oliy o‘quv yurti darsliklaridan muntazam ravishda joy oldi, ilmiy ishlar himoya qilindi. Bular barchasi kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy poydevordir. Ayni paytda, taraqqiyot bardavom ekan vaqt o‘tib avval bajarilgan ishlarga tayangan, tanqidiy qaragan hamda yangi bilimlar majmuiga suyangan holda yanada yuqori ilgarilashni zamon taqozo etmoqda. Biz bu o‘rinda shoirning shoh asari, o‘zbek madaniyati tarixida o‘zgacha o‘rin tutuvchi *“Xamsa”ning zamonaviy kitobxonlarga qay yo‘sinda taqdim qilish borasida* ayrim mulohazalar bilan o‘rtoqlashmoqchimiz.

Asosiy qism. Shoir ijodining cho‘qqisi *“Xamsa”* nisbatan eng ko‘p ko‘chirilgan, katta hudud bo‘ylab tarqalgan, sevib o‘qilgan, doimiy ravishda adabiy jarayondan muqim o‘rin olgan yirik epopeya hisoblanadi. Aynan shu tufayli keyingi asrlarga kelib *“Xamsa”* dostonlari asosida xalq kitoblari yaratildi.¹ Qizig‘i shundaki, bu xalq kitoblari uzoq vaqt davomida kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilgan hamda ularning toshbosma nashrlari ham mavjud. Agar biz *“Xamsa”*ning kotiblar tomonidan ko‘chirilish tarixiga nazar solsak, XIX asr boshlaridan boshlab **deyarli har besh-o‘n yilda qayta-qayta ko‘chirilganiga** guvoh bo‘lamiz.² Oldingi zamonlarda esa bunday holat kuzatilmaydi. Katalogdan joy olgan *“Xamsa”* nusxalarining aksariyat qismi, aniqrog‘i 80 foizi XIX asrda ko‘chirilgandir. Albatta,

¹ Bu haqda qarang: Mallayev N. *“Farhod va Shirin”ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi varianti//Adabiy meros.1973 № 3. 135-146 betlar.*

² Alisher Navoiy *“Xamsa”*sining qo‘lyozmalari katalogi.T..1986. Tuzuvchilar: Q.Munirov va M.Hakimov. Kitobda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik hamda H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondlarida saqlanayotgan *“Xamsa”*ning 200 yaqin nusxalari ilmiy tavsif etilgan bo‘lib, bu o‘tgan asrning 80-90 yillari tegishli ma‘lumotlar, bugun esa bu faktlar miqdor jihatdan o‘zgargan bo‘lishi mumkin.

“Xamsa” shoir tiriklik chog‘idan boshlab muntazam ravishda ko‘chirilgan, adabiy jarayondan mustahkam o‘rin olgan, adabiy ehtiyojni qondirgan, biroq XIX asr kelib bu ehtiyoj karra ko‘paygan. Lekin buning sabablari, asar qaysi xududlarda nisbatan ko‘proq tarqalgani kabi masalalar hozircha tadqiqot obyekti bo‘lganicha yo‘q.

Tarixiy taraqqiyotda uzluksiz ravishda o‘zgarishlar muqarrar ekan mumtoz asarga bo‘lgan munosabat ham o‘zgaruvchidir. Chunki har qanday asar yangi zamonning adabiy ehtiyojlariga javob bersagina uning ikkinchi umri – “estetik hayoti” bardavom bo‘ladi. Buning uchun esa, mumtoz asarni birinchi galda zamonaviy kitobxon (keng ma’noda) tushunadigan tarzda taqdim eta bilish lozim. Badiiy asar yaratilgan davr bilan oraliqdagi masofa, adabiy qarashlarning muntazam o‘zgarishi, til borasidagi qator muammolar mumtoz asarni tushunishda murakkabliklar tug‘diradi. Asar kitobxon tomonidan anglangan, tushunilgan holatda badiiy asar va o‘quvchiaro robita, aloqa - adabiy muloqot paydo bo‘ladi:” Adabiy muloqot o‘quvchi – kitobxondan matnni tushunishni taqozo etadi. *Faqat tushunishgina muallifning fikr va hissiyotlarini kitobxon tomonidan anglash va o‘zlashtirishni, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini, auditoriyaga o‘tkazajak ta’sirini, adabiyotning ijtimoiy vazifasini hamda jamiyat hayotida tutgan o‘rnini aniqlash imkonini beradi.* Tushunish – nihoyatda murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, u tushunish nazariyasi – hermenevtikada tadqiq qilinadi”.³ Demak, badiiy yaratiqni tushunish, anglash uni inkishof etishga yo‘l ochadi.

Davrlar sinovidan ishonchli o‘tgan “Xamsa” o‘tgan yuz yillikda ham muntazam tarzda adabiy jarayondan joy oldi, turli xil shakllarda chop etildi, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar ob’yektiga aylandi. Ma’lumki, XX asr mobaynida o‘zbek yozuvining doimiy o‘zgarishi (dastlab lotin keyin esa kirill alifbosiga o‘tilishi) shoir asarlarini tezroq zamonaviy kitobxonlar ommasiga yetkazish uchun joriy alifboga tabdil qilishni kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ydi. Ayni jarayon – shoir asarlarini keng

³ ТЕОРИИ, ШКОЛЫ, КОНЦЕПЦИИ (критические анализы) Художественная рецепция и герменевтика. – Москва.1985. – 3с.

kitobxonlar ommasiga tezroq yetkazish, ikkinchi bir muhim jihat – dastlab ilmiy-tanqidiy matnlar tuzishni esa orqa o‘ringa surdi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy asarlari bizgacha to‘liq hajmda yetib kelgan va eng quvonarlisi, shoir hayotlik chog‘i ko‘chirilgan noyob nusxalar ham saqlanib qolgan. Biroq Navoiyning dastxati,(avtorgraf) afsuski, bizgacha yetib kelmagan va bu holat kun tartibiga dastavval ilmiy-tanqidiy matnlar tuzish masalasini shart qilib qo‘yadi. Chunki asarni ko‘chirgan kotibning savodxonlik madaniyati, biror-bir ijtimoiy guruhga mansubligi, asarni tushunishi bular barchasi matnda aks etadi. Shuningdek, o‘rta asrlarda muallif (avtor) huquqi masalasi butunlay o‘zgacha idrok etilgan va bu o‘z navbatida matnga nisbatan “erkin” yondashuvga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda shoir asarlarini ilmiy-tanqidiy matnini tuzib, imkon qadar xatolardan xoli, muallif matniga nisbatan yaqin, sahiih asarni ilmiy jamoatchilik hamda keng kitobxonlar ommasiga taqdiq etish hamon dolzarb sanaladi.

Biroq yuqorida aytib o‘tilganidek,o‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab shoir asarlarini kitobxonlarga **tezroq taqdim** etish ustuvor vazifaga aylandi. Biz “Xamsa”ni qanday shaklda taqdim qilinishi yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Yangi davrda “Xamsa” mashhur adib-adabiyotshunos S.Ayniy tomonidan 1940-yili lotin alifbosida bosilib chiqqan. Mazkur nashr yangi davrda shoir asarini keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda ilk urinishlardan biri bo‘lib, dostonlar qisqartirilib berilgan va oraliqda S.Ayniy tomonidan uch-to‘rt jumla nasrda bitilgan izohlovchi bo‘laklar joy olgan. Shuningdek, kirishda “Alisher Navoiy “Xamsa”si” nomli muqaddima bitilgan va unda asarning g‘oviy yo‘nalishi, asosiy obrazlar haqida umumiy bir tarzda bo‘lsa-da fikr-mulohazalar, talqinlar joy olgan. Qizig‘i, har bir doston bo‘yicha qisqacha shaklda bo‘lsa ham yuqoridagi yondashuvga izchil amal qilingan. Bundan tashqari nima uchun aynan yo‘l tutilgani ham izohlangan: “Alisher Navoiyning “Xamsa”sida 50 ming misradan ortiq she‘r bor. Keng o‘quvchilar ommasi uchun uni bir butun holda tezda egallab olish ancha og‘ir bo‘ladi. Shuning uchun bu qiyinchiliklarni nazarga olib, Navoiy Yubiley

Komiteting topshirig'i *blan* qo'lingizdagi bu tanlama nusxa vujudga keldi".⁴ Demak, noshirning e'tirofiga ko'ra, shoir "Xamsa"sini "bir butun holda" o'qib, anglash zamonaviy kitobxon uchun bir muncha qiyinchilar tug'diradi va shu sabab matn "yengillashtirilgan" shaklda, ayrim o'rinlarga nasriy izohlar, lug'at bilan kitobxonlarga taqdim etilgan.

Oradan ko'p o'tmay 1947-yili kirill yozuvida "Xamsa" qayta nashr etildi. Kitobning kirish qismida avvalgi nashrdan farqli ravishda nashriyotdan quyidagicha ma'lumot berilgan: "Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan bu nusxasi O'zSSR Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi yozuvchi Sadridin Ayniy tomonidan 1939 nchi yili tayyorlangan va **1940-yili lotinlashtirilgan o'zbek alifbosida bosilib chiqqan edi**. Buni nashrga tayyorlash chog'ida "Xamsa"ning XV asrda ko'chirilgan nusxalari qo'lda bo'lmaganligi uchun, keyingi asrlarga oid qo'lyozmalar asosida ishlangan edi. Bu kitob maydonga chiqqandan so'ng "Xamsa"ning XV asrda, Navoiyning hayot vaqtida ko'chirilgan ikki nodir nusxasi qo'limizga kirdi. Bular Hirotning *atoqli* xattotlaridan biri Abdujamil kotib (1485-yilda) va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan (1492/1493-yilda ko'chirilgan bo'lib, hozircha qo'limizda bor eng eski nusxa hisoblanadi.

Natijalar va muhokamalar. Qisqartirilgan "Xamsa" 2-nchi nashrga tayyorlashda mazkur ikki mo'tabar nusxa hamda bularga asoslanib tayyorlangan tanqidiy tekstlar bilan solishtirildi va oradagi farqlar tuzatildi Asarning nasriy qismlari va sahifalar ostidagi sharhlar ko'p o'rinlarda qisqartirildi va ixchamlashtirildi. Bu vazifani Til va Adabiyot **istitutining ilmiy xodimlari** Solih Mutallibov (filologiya fanlari kandidati), Sobirjon Ibrohimov va Porso Shamsiyev o'rtoqlar bajardilar".⁵ Demak, avvalgi nashr "Xamsa"ning shoir xayotlik chog'i ko'chirilgan qadimiy nusxalari hamda o'sha davrda tuzilgan tanqidiy matnlar bilan solishtirgan, ayrim matniy noqisliklar bartaraf qilingan.

⁴ Biz ko'chirma keltirganda davr imlosini saqladik.

⁵ Alisher Navoiy "Xamsa" Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy. O'zdamnashr. 1947.

Biz bu yerda asarni qanday prinsip asosida nashrga tayyorlanganligi borasida to‘xtalib o‘tirmaymiz, bu kirish qismida qisman yoritilgan, asosiy maqsad yuqorida qayd etilganidek “keng kitobxonlar ommasiga tezroq” yetkazish edi. Shu sababli, ishga jalb etilgan manbalarning ilmiy tavsifi, farqli jihatlari, to‘liq yoki noqisligi kabi qator matnshunoslikning tayanch tushunchalari orqa o‘ringa o‘tgan. Biroq zamonaviy kitobxonlar saviyasini nazarda tutib, Sharq mumtoz adabiyotining bilimdoni S.Ayniy tomonidan ayrim murakkab baytlar, tushunilishi qiyin bo‘lgan she’riy san’atlar bilan bezatilgan iboralar izohlangan, sharhlangan va bu o‘quvchiga matnni tushunishda, anglashda, demakki, shoir ijodiy olamiga kirishga yaqindan yordam beradi. Buning natijasida esa kitobxon va shoir o‘rtasida “adabiy muloqot” sodir bo‘ladi. Masalan, “Hayrat ul-abror”ning 4-maqolotidagi quyidagi baytga diqqat qiling:

O‘chkucha ham, yo‘q ishida to‘g‘riliq,
Ul tutib o‘g‘ri, bu qilib o‘g‘rilik.

Ayniy domla quyidagicha izoh bergan: “Bu yerda o‘g‘ri va echkini o‘g‘ri tutuvchi deyilgan. Bunda o‘rgatilgan echkilar, tamoshabinlar orasida, egalari yoki boshqa biror kishi tomonidan *yashirilgan narsani topardilar* va echki o‘ynatilganda “**o‘g‘rini top**” deb buyurilardi”.⁶ Bu kabi o‘rinli izoh va sharhlar butun nashr bo‘ylab, har bir doston uchun o‘z o‘rnida berilgan, bular kitobxon tomonidan shoirning murakkab baytlarini to‘g‘ri tushunish, anglashda qo‘l keladi.

Endi quyida dostonning “**Karam vasfidakim ...**” maqolotidagi misollarga diqqat qiling:

Ham yuborur la’l Badaxshon sari,
Ham keturur zirani Kirmon sari.
Sham’ni kunduz yoritur beadam,
Mehr ziyosig‘a beray, deb madad.
O‘yla bulutdekki, quruq bog‘ uza.
Yog‘may o‘tub, suvni to‘kar tog‘ uza.

⁶ O‘sha kitob. 25-bet.

Mazkur baytlarga Ayniyning izohlari tubandagicha: **“Bu o‘rinda muhtoj bo‘lmagan kishilarga** bergan kishini – la’lni la’l koni bo‘lgan Badaxshonga, zirani zira koni bo‘lgan Kirmon viloyatiga olib boradigan (bu ikki jumla xalq maqolidan) va oftobning nuriga madad bermoqchi bo‘lib, **kunduz kuni sham’ yoqadigan ahmoq kishiga** o‘xshatilgan. Unday kishini qurib, qovjirab qolgan boqqa *yohmay*, **hojatsiz toqqa yog‘adigan bulutga tenglashtirilgan**”.⁷ Demak, Alisher Navoiy saxovatni, mehr-muruvvatni birinchi galda, “muhtoj bo‘lgan” kishilarga ko‘rsatishni eng maqbul ish deb bilmoqda va buyuk shoirning bu kabi o‘gitlari bugun ham **ulkan tarbiyaviy** ahamiyatga egadir. Shoir ijodiy merosini o‘rganuvchi tadqiqotchi esa ayni shu kabi ma’no zahiralari izlab topib, ularni yangi zamonaviy talqinini bera olishi lozim. Mana shundagina Navoiy ijodi bugun bilan bevosita bog‘lanadi, zamonaviy kitobxonlar ko‘z o‘ngida to‘liq namoyon bo‘ladi. Mulohazalarimiz adabiy merosni qanday taqdim qilish borasida ketar ekan, XX asrning mashhur faylasufi va filologi M.Baxtinning (1895-1975) quyidagi mulohazalari beixtiyor yodga tushadi: “Buyuk asarlarning o‘zlari yaratilgan davrdan uzoq – kelgusi davrlardagi hayoti, aytib o‘tganimizdek, paradoks bo‘lib tuyuladi. O‘zlarining ikkinchi umri jarayonida ular yangi ma’nolar, yangi mazmun bilan boyiydilar; bu asarlar go‘yo yaratilgan davrlardagi terilariga sig‘may qoladilar, uni yorib chiqadilar”.⁸ Shu bilan birga, mumtoz merosni tadqiq qilganda aslida yo‘q narsalarni unga taqab, qulog‘idan cho‘zib zamoniylashtirish, asarni har xil o‘tkinchi siyosiy vaziyatlarga qurbon qilmaslik hamda sub’yektiv talqinlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim: “Asar obyektiv ravishda ma’lum bir ma’no-mazmunga ega bo‘lib, u sxematik yoxud har bir resipiyent (talqin etuvchi) o‘zicha “inkishof” etuvchi va topgan “shaxsiy” topilmalarini tashlovchi “sandiqlik” emas. Aynan shu sababli, qabul qishi jarayoni o‘ta murakkab hamda doimiy o‘zgaruvchan bo‘lgan badiiy asarni yolg‘iz subyektiv faktorlar bilan, *uning ob’yektiv xususiyatlarini hamda muayyan tarixiy voqelik bilan aloqador jihatlarini va birinchi galda yaratilgan davrga qaratilganligini inobatga*

⁷ O‘sha kitob. 27-bet.

⁸ M.Baxtin. “Новый мир” redaksiyasi savollariga javob.// Filologiya masalalari. 2003.№1. 83-88 betlar. Tarjimon M.Olimov.

olmay turib o'rganib bo'lmaydi".⁹ Keyingi paytlarda Alisher Navoiy ijodiyotini o'rganishda o'ta sub'yektiv yondashuv, tarixiylik prinsipidan chekinish kabi noxush xolatlar kuzatilmoqda va buning natijadi shoir xuddi bir "samoviy siymodek" taassurot qoldirmoqda. Aslida unday emas. Buyuk shoir ijodiy merosi botinida hali inkishof etilmagan ma'no zahiralari mavjud bo'lib, ularni izlab topib zamona bilan bog'langan tarzda talqin eta bilish Navoiyni bizning bugungi hamkorimizga, maslakdoshimizga aylantira olish demakdir. Yana bir bor M.Baxtinga murojaat qilamiz:" Ma'noga aloqador hodisalar yashirin tarzda, imkoniyat holda mavjud bo'lishi va keyingi davrlarning ularni yuzaga chiqarish uchun qulay imkoniyat yaratadigan ma'naviy-madaniy kontekstida o'zligini to'liq namoyon etishi mumkin".¹⁰ Darhaqiqat, shunday.

Xulosa. Qisqasi, so'z *adabiy meros va bugungi kun* haqida borar ekan avvalo mumtoz merosni tadqiq etish metodologiyasini belgilab olish shartdir. Buning uchun esa, bajarilgan ishlarni tanqidiy idrok etib, yutuq-kamchiliklarini ro'y-rost ko'rsatib, yangi bilimlar majmuiga tayangan holda amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy "Xamsa" Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy. O'zdnashr. 1947.
2. Alisher Navoiy "Xamsa"sining qo'lyozmalari katalogi. T..1986. Tuzuvchilar: Q.Munirov va M.Hakimov.
3. Baxtin M. "Новый мир" redaksiyasi savollariga javob.// Filologiya masalalari. 2003.№1. 83-88 betlar. Tarjimon M.Olimov.
4. Литературные произведения в движении эпох. Москва. 1979. 9с.
5. Теории, школы, концепции (критические анализы) Художественная рецепция и герменевтика. –Москва.1985. – 3с.
6. Mallayev N. "Farhod va Shirin"ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi varianti//Adabiy meros.1973 № 3. 135-146 betlar

⁹ Литературные произведения в движении эпох. Москва. 1979. 9с. Tarjima bizniki.

¹⁰ O'sha maqola.